

Saylov va yoshlar

Barchamizga ma'lumki, joriy yil 22-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari saylovi kuni. Saylovlarni yuqori saviyada o'tishi uchun saylovchilar zarur huquqiy bilimlarga ega bo'lishi zarur. Shuning uchun saylovchilarning, ayniqsa, ilk bor saylovlarda ishtirok etayotgan yosh saylovchilarning huquqiy bilimlarini boyitishga va ularni saylov qonunchiligi bilan tanishtirish alohida e'tibor qaratilmoqda.



Shu maqsadda Andijon davlat tibbiyot instituti Kengashlar zalida "Saylov va yoshlar" mavzusida davra suhbatini o'tkazildi. Andijon viloyat Adliya boshqarmasi inson huquqlarini himoya qilish bo'limi boshlig'i Kamoliddin Amanov, mazkur boshqarma huquqiy targ'ibot bo'limi boshlig'i Umidjon Hakimov, viloyat prokuraturasi uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurash bo'limi katta tergovchisi Lazizbek Madumarov ishtirok

etgan davra suhbatini institut yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektori Abdupatto Asxanov qisqacha kirish so'zi bilan ochar ekan, oldindagi saylovning jamiyat hayotidagi o'rni, saylash va saylanish huquqi xususida to'htalib o'tdi.



Tadbirda so'z olgan mutaxassislar saylov, saylov qonunchiligi, saylovga tayyorgarlik, saylovchining huquq va burchlari haqida ma'lumot berdilar. Davra suhbatida viloyat prokuraturasi katta tergovchisi L.Madumarov "Biz karruptsiyaga qarshimiz» mavzusi ostida jinoyatchilikning turlari, jumladan. karruptsiyaning ko'rinishlari, mamlkatimizda karruptsiyaga qarshi kurash borasida olib borayotgan chora-tadbirlar xususida so'z yuritdi.



Ochiq muloqot tarzida o'tgan davra suhbatida umumiy va ijtimoiy gigeniya kafedrasida katta o'qituvchilari Hilolaxon Sapioxunova, Sohiboxon Xolmirzaeva, Gulnoraxon Usmonovalar va tibbiy profilaktika yo'nalishi talabalari ishtirok etishdi.



Davra suhbatini davomida ishtirokchilar mavzu yuzasidan o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislar tomonidan yetarlicha javoblar olishdi.



ADTI axborot xizmati